

TASAVVUF FALSAFASI VA ADABIYOTINING GLOBAL AHAMIYATI

Ja'far Xolmo'minov,
falsafa fanlari doktori(DSc),
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Manbashunoslik va tasavvuf germenevtikasi” kafedrasi dotsenti
jafarmuhammad@mail.ru

Islombek Rahmonberdiyev,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti
islombekrakhmonberdiev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Islom dini tarkibida shakllanib, uning Islom, Iymon va Ehson kabi qismlaridan uchinchi qismiga taalluqli bo'lgan va Musulmon Sharqida salkam 1300 yildan buyon tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tib, mukammal bir diniy-falsafiy ta'limot sifatida shakllangan Tasavvuf va uning bugungi davrdagi ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Mualliflarning fikricha, ruhiy inqiroz va tanazzullarga uchragan bugungi davr insoni uchun Tasavvufning hayotbaxsh g'oyalari inson ruhiyatini mu'tadillashtirishga, uni kelajakka bo'lgan ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, uni falsafiy jihatdan jiddiyroq o'rganish va ruhiy tarbiya usullaridan biri sifatida qo'llash yaxshi natijalar berishi mumkin, degan xulosaga kelishadi.

Kalit so'zlar: Islom, islam dunyosi, din, Islom dini, shariat, tasavvuf, tasavvuf falsafasi, tasavvuf ta'limoti, tasavvuf ilmi, global, globallashuv, g'oya, modernizm, Sharq, G'arb, ta'sir, ruhiy-ma'naviy tarbiya, ruhiy salomatlik, pozitivizm, taraqqiyot, kamolot.

GLOBAL SIGNIFICANCE OF PHILOSOPHY OF SUFIS AND LITERATURE

Kholmuminov Jafar Mukhammadievich,
Doctor of Philosophical Sciences,
Associate Professor of the Department of Source Studies
and Hermeneutics of Sufism of the TSUOS
jafarmuhammad@mail.ru

Islombek Rakhmonberdiev,
Master of Eastern Philosophy and Culture of TSUOS

ABSTRACT

This article discusses Sufism and its significance today, which is formed as part of Islam, belongs to the third part of it, such as Islam, Iman and Ihsan, and has gone through almost 1300 years of historical development in the Muslim East as a perfect religious and philosophical doctrine.

According to the authors, the vital ideas of Sufism serve to moderate the human psyche, to increase its confidence in the future, for today's man in a state of spiritual crisis and decline. In this context, they conclude that it can yield good results if studied more philosophically and applied as one of the methods of spiritual education.

Keywords: Islam, the world of Islam, religion, sharia, sufism, philosophy of sufism, the doctrine of sufism, knowledge of sufism, global, globalisation, idea, modernism, The East, The West, influence, spiritual-cultural upbringing, psychological wellness, positive, development, maturity.

KIRISH

Zamonaviylik dunyoviy fenomen sifatida zamonaviy nazariyotchilarning urfatlar va dinga qarshi qarashlarida nihoyatda kuchli ta'sirga ega. Ushbu ikki element sekulyarizm taraqqiyoti globallashib borishi natijasida kuchsizlanib borayotgandek. Biroq, sekulyarizm tarafdarlarining davlat boshqaruvi va demokratiya xususidagi qarashlari va ularning va'dalari o'zini oqlamadi. Ushbu vaziyatda Islom harakati haqiqiy Islomni qaytarish g'oyasini ilgari surishi modernizm va din o'rtaсидаги zamonaviy munosabatlarga yaqqol misoldir.¹

Bir tomonidan ko'p madaniyatli, bir tomonidan esa globallashuv jarayonida yagona iqtisodiy makon va yagona madaniyatga qarab ketayotgan davrda, Tasavvuf talimoti islom dunyosida sokinlashib, yakkalanib qolgan. Islomshunos tadqiqotchilar tasavvufning inqiroziga ikki omilni asosiy sabab qilib ko'rsatishadi: tasavvuf ahlining Islom jamiyatiga bo'lgan ishonchining yo'qolishi; shariat ahlining haqiqiy Islom ta'limotidan uzoqlashib, shariat buyurgan ibodatlarni ado etishda nuqsonlarga yo'l qo'yishi. Shuningdek, nomusulmon jamiyatli G'arbning taraqqiyoti musulmon davlardan ko'plab jihatlarda ustunlik qilishmoqda. Ushbu ko'p madaniyatli va globallashuv zamonida, ko'plab musulmonlarning dunyoqarashi pragmatik ko'rinish ola boshladi.

Pragmatik dunyoqarash kapitalizm rivoji fonida insoniyatga nihoyatda katta bosim o'tkazmoqda. G'arb mamlakatlarida "Farovonlik jamiyati" o'tgan asrning

¹ Achmad Ubaedillah, "Sufi Islam And the nation state: Durul Arkam movement in the post Suharto era of Indonesia". Indonesian journal of Islam and Muslim Societies 5,no.1(2015):80.

saksoninchi yillariga qadar o‘rnatilgan bo‘lsada, insoniyatning baxt-saodatga erishuvi haqidagi sekulyarizm tarafdarlari va pragmatik siyosatchilar ilgari surgan g‘oyalari o‘zini oqlamaganini bugungi kunda rivojlangan mamlakatlardagi suitsitsitlar, turli jinoyatlar va axloqiy buzuqliklar ko‘rsatkichlari o‘sib borayotgani bunga yaqqol dalildir. Demokratik jamiyatlarning asosiy shiori bo‘lmish “inson huquqlari va xohishlari oliy qadriyat”ligi natijasida hozirgi kunda G‘arb mamlakatlari o‘z qonunchiligiga bir qancha insoniylikka zid bo‘lgan axloqsizliklarni o‘z mamlakatlarida legitimlashtirish ga majbur bo‘lmoqda. Shvetsariyada inson yashashni istamasa uni o‘z talabi asosidaoson yo‘l bilan hayotiga nuqta qo‘yuvchi Sarko nomli 3-d moslamalar hukumati tomonidan ruxsat berilgan.² G‘arb mamlakatlari, jumladan Niderlandiya, Germaniya, Belgiya, Lyuksemburg, Kanada, Kolumbiya kabi iqtisodiyoti barqaror rivojlangan mamlakatlarda kuzatilishi³ demak, iqtisodiy rivojlanish va farovon hayot har doim ham insonga baxt olib kelmaydi degan xulosa chiqarishga olib keladi. Bir so‘z bilan aytganda, kapitalizm insoniyatga foydadan tashqari katta zarar ham keltirmoqda.

Ushbu fikrni G‘arb jamiyati ziyoli qatlami tomonidan e’tirof etilishi⁴ ushbu xulosani qanchalik to‘g‘ri ekanligini isbotlaydi. G‘arbda “Kommunizm millionlab insonlarni o‘ldirdi, kapitalizm ham”⁵ nomli qarash hozirgi kunda shakllanib bo‘lgan. Kapitalizmga fashizmga yoqilg‘i vazifasini bajardi.⁶ G‘arbda kapitalizm bir qancha urushlarga sababchi bo‘lgani omili ham ko‘tarilib, insoniyat mushtarak g‘oyalar bilan tinch-totuv yashash o‘rniga, salbiy raqobat qilib qon to‘kishi haqida bir qancha faylasuflar tomonidan bot-bot takrorlanmoqda.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ingliz faylasufi va iqtisodchisi Adam Smit kapitalizm haqida: ”Kapitalizm insoniy qadriyatlarga zarar yetkazadi”⁷ degan fikrni bildirganligi bugungi kunda o‘z tasdig‘ini topmoqda. Bu haqida katolik cherkovi kapitalizm o‘zining moddiyunchilik tamoyili tufayli insoniyatga salbiy tasir o‘tkazmoqda,⁸ deya da’vo bilan chiqgan. Rim Papasi ”Kapitalizm-shavqatsizlikning yangicha ko‘rinishi, uni kambag‘al va

² Insider.3 d-printed suicide pods are now legal in Switzerland.

³ Nicola Davis “Euthanasia and assisted dying rates are soaring”. Guardian.

⁴ George Monbiot”Capitalism is killing the planet-it is time to stop buying into our own destruction”. Guardian.

⁵ Umar Haque “If Communism killed millions,Capitalism too”. Eudaimonia.july-2018 .

⁶ Umar Haque “When ideas becomes ideology,The prise is us”. Eudaimonia.july-2018 .

⁷“The basics of philosophy” https://www.philosophybasics.com/branch_capitalism.html

⁸ “Catechism of the Catholic Church: III. The Social Doctrine of the Church”. Vatican Publishing House.

nochorlar dushmani, iqlimiylar inqirozning asosiy sababchisi”⁹ ekanligini ta’kidlashi ham o‘zgacha bir qarashdir.

XIX asrda yashab ijod qilgan rus faylasufi va jamiyatshunosi M.Bakunin inson xoxish va mayllarining erkinliklari mavjud axloqiy kodekslar doirasida bo‘lsa pozitiv anarxizm, agar buning teskarisi bo‘lib unga hukumat va jamiyat tomonidan maqullansa negativ anarxizmga sabab bo‘ladi, deya ta’kidlagan ham ushbu ikki atamani fanga qo‘shgan. Negativ anarxizm bugungi kunda G‘arbda qanchalik qaror topdi? Bugungi kunda g‘arb madaniyati va unga singib ketayotgan axloqiy buzuqliklar hamda G‘arb orqali kirib kelayotgan ommaviy madaniyat insoniyatni axloqiy tanazzulga boshlayotgani bugungi kunda sir emas. Bakunining neaktiv anarxizm qaror topganligini G‘arbda insoniy fitrat va tabiatga butunlay zid bo‘lgan bir jinsli nikoh, o‘z jinsini o‘zgartirish huquqi, o‘z joniga qasd qilishda hukumatning amaliy yordami kabi inson eshitsa seskanadigan tushunchalar bugun insoniyatni iqtisodiy rivojlanish qatori ushbu muammolarni ham kelajak avlod uchun zudlik bilan hal qilish kerakligini kun tartibiga qo‘ymoqda. Ushbu ro‘y berayotgan voqealar fonida xristian olamida odamlarning cherkovga bo‘lgan ishonchi keskin tushib ketib, ayrimlari dinsizlikni, katta qismi esa islom dinini ixtiyor qilayotgani ayni haqiqat. Statistik ma’lumotlarga qaraganda, 2016 yilga qadar G‘arbiy Yevropa aholisi islomni qabul qilish ko‘rsatkichi sezilarli 11% ni tashkil qilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 2050-yilga qadar 16% dan kam bo‘lmagan holatda yetib borishi bashorat qilingan.Ushbu ko‘rsatkich migratsiya omilidan holi ekanligi faktdir.¹⁰ Ushbu ko‘rsatkich iqtisodiy farovonligi yuqori Skandinaviya davlatlari, Fransiya, Germaniya, Niderlandiya, Belgiya, Buyuk Britaniya, Avstriya, Shvetsariya kabi davlarda 12% dan yuqori ko‘rsatkichdaligi fikrimiz isbotidir. Yevropa mamlakatlari nafaqat islomni qabul qilib islom shariati buyurgan amallarni ado etishga o‘tmoqda balki, iqtisodiyoti va siyosatiga ham islomiy hkumlarni joriy etayotgani haqiqatdir.Islom moliyasi atamasi bugungi kunda dunyo bo‘ylab iqtisodiyotga keng qilinayotgan dastur hisoblanadi.¹¹

Mulaohazalarni davomi o‘laroq, dunyo bo‘ylab, xususan, Yevropada shariatdan keyingi bosqich – tariqat, ya’ni, tasavvuf (botiniy fiqh)¹²ga bo‘lgan qiziqish avvalgiga qaraganda sezilarli darajada ortgan. Chor Rossiysi mustamlakasi bo‘lib, o‘zligimiz aks etgan o‘tmishimiz, qadriyatlarimiz va tasavvuf ilmiga o‘z xissalarini qo‘shgan

⁹ O’Leary, Naomi (26 November 2013). "Pope attacks 'tyranny' of markets in manifesto for papacy". Business News. Reuters.

¹⁰ Muslim Population Growth in Europe | Pew Research Center (pewforum.org)

¹¹ Islamic Finance in Europe (deloitte.com)

¹² Муҳаммад Нуруллоҳ Сайдо ал Жазарий. Тасаввув сирлари . – Тошкент, 1999.

buyuk ajdodlarimizni unutayozgan vaqtimizda ham dunyo bo‘ylab ko‘plab tadqiqotchilar ularni o‘rganib, ular ilgari surgan haqiqatlarni anglab yetib, o‘z xalqiga tanishtirganlarida Musulmon Sharqi hali uyquda edi.

Xojagon-Naqshbandiya talimoti, ayniqsa, Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoniy va Xoja Bahouddin Naqshband ta’limoti, Xoja Muhammad Porso, Xoja Ahror Valiy va Mavlono Abdurahmon Jomiyning tasavvufiy-irfoniy merosi va ularning Sharq adabiyoti va falsafiy tafakkurida tutgan mavqeい masalasi bo‘yicha G‘arb va Sharqning taniqli sharqshunos, adabiyotshunos va faylasuf olimlari A.Masse,¹³ E.Braun,¹⁴ Ye.E.Bertels,¹⁵ A.N.Boldirev,¹⁶ V.A.Gordlevskiy¹⁷ tomonidan, Ibn al-Arabiyning Vahdat ul-vujud falsafasi, shuningdek, Naqshbandiya ta’limoti bilan bog‘liq bo‘lgan tadqiqotlar doirasida bir qator faylasuf, sharqshunos va islomshunos olimlar tomonidan e’tiborga molik ishlar amalga oshirildi. Jumladan, olmon sharqshunos va islomshunos olimasi A. Shimmel, fransuz sharqshunos olimi Ya. Rishard, kanadalik islomshunos olim N.Hir, amerikalik sharqshunos va islomshunos olim U.Chittik,¹⁸ ingliz islomshunos olimlari Dj.S. Trimingham,¹⁹ Idris Shoh,²⁰ H.Korbin, alban olimi P.Morvedj, rus sharqshunos olimlari Ye.E. Bertels, M.T. Stepanyans, arab olimlari U.Yahyo (Misr),²¹ A. Miftoh,²² eronlik olimlar A.Zarrinko‘b, M.Jahongiriy, Q.Kokoiy,A.Mazohiriy, K.Muhammadiy, afg‘on olimlari M.Muballig‘, N.M.Hiraviy, tojik olimlari M.Rajabov, A.Afsahzod, A. Muxam- medxodjaev, turk olimlari U.Turar, M.A.Jo‘shon , S.Uludog‘,²³ N.To‘sun,²⁴

¹³ Masse H. Djammi. Le Baharistan. Paris, 1925.

¹⁴ Edward Browne. Aliterary history of Persia. Vol. 3. Cambrige. 1928.

¹⁵ Бертельс Е.Э. Навои и Джами. - М., 1965; Бертельс Е.Э. Суфизм и суфийская литература. // Изб. труды: Т.3. – М., 1965.

¹⁶ Болдырев А.Н. Еще раз к вопросу о Ходже Ахропе. // Духовенство и политическая жизнь на Ближнем и Среднем Востоке в период феодализма. – М., 1984. – С.47-48.

¹⁷ Гордлевский В.А. Бахауддин Накшбанд Бухарский. Изб. Соч. Т.3. – М., 1962. – С.369-386

¹⁸ Chittick W.C. The Perfect Man as the Prototype of the self in the sufism of Gami. Studia Islamica. XLIX, 1979; William C. Chittick.The Self Disclosure of God: Principles of Ibn al-‘Arabi’s Cosmology (State University of New York Press, 1998); William C. Chittick. Ibn ‘Arabi: Heir to the Prophets (Oxford: Oneworld, 2005); Chittick, W.C. Ed de Jami, Naqd al-nosus. Voir introduction, «Ceuvers de Jami»; .William C. Chittick.The Heart of Islamic Philosophy (Oxford University Press, 2001); William C. Chittick.Sufism: A Short Introduction (Oneword, 2000).

¹⁹ Дж.С.Тримингэм. Суфийские ордены в исламе. / Пер. с англ. под ред. и с предисловием О.Ф.Акимушкина. – М.: «Наука», 1989.

²⁰ Суфизм. – Москва, 1994.

²¹ Osman Yahia. Histore et Classification De L’Ibn Arabi. – Damas, 1969; Мухиддин ибн ал-Арабий. Ал-Футухот ул-Маккия, 1-жилд. Тахқик: Усмон Яҳё. – Миср, 1392; Мухиддин ибн ал-Арабий. Ал-Футухот ул-Маккия, 2-жилд. Тахқик: Усмон Яҳё. – Миср, 1392; Мухиддин ибн ал-Арабий. Ал-Футухот ул-Маккия, 3-жилд. Тахқик: Усмон Яҳё. – Миср, 1392.

²² Мифтоҳ. Калидҳо-йэ фаҳм-э “Фусус ул-хикам”-э Мухиддин ибн Арабий. / Таржумә ва таҳқик-э дуктур Довуд Эспарҳам. – Техрон: “Илм”, 1385.

²³ Улудог С. Ибн Арабий. Таржумаси Довуд Вафоий. – Техрон: “Нашри Марказ”, 1384.

²⁴ Тўсун Н. Бахауддин Накшбанд: ҳаёти, қарашлари, тариқати. – Истанбул, 2007.

yapon olimi T.Izutsu²⁵ va boshqalarning tadqiqot ishlarida tasavvuf ta’limoti va Vahdat ul-vujud falsafasi bilan bog‘liq masalalar o‘rin olgan.

Tasavvuf haqidagi tadqiqotlar hozirgi kunda dunyo olimlari tomonidan amalga oshi-rilmoqda. Islom falsafasi va tasavvuf haqida tadqiqotlar olib borayotgan bir qancha sharqshunos olimlar tasavvufning inson ruhiyati har qachongidan ham tarbiyaga, tasalliga muhtojligini takidlab,tasavvufni bevosita psixologiyaga ham bog‘liq ekanligini etirofi o‘laroq: ”Ilm-fan va texnika taraqqiyoti insoniyatga ko‘plab qulayliklar beribgina qolmay,ko‘plab psixologik muammolarga ham sabab bo‘lmoqda. Barcha ilmiy yutuqlar va taraqqiyotning fundamental asosi bo‘lmish inson ruhiyati uchun foydali bo‘lgan axloqiy kodekslar majmuasi hisoblanmish din unutilib, moddiyat sari intilish bugungi zamon odami fitratiga o‘rnashib,uning oliv maqsadiga aylanmoqda. Moddiy manfaat uchun ko‘plab jinoyatlar,mamlakatlararo etibor beradigan bo‘lsak, urushlar, yadro qurolining yaratilishi,tabiiy resurslar uchun kurash kuchayishi, turli geosiyosiy o‘yinlar, nazariyalarning barchasi insoniyatni yo‘q qilish evaziga gegemon bo‘lishni maqsad qilib olgan ma’lum bir guruuhlar tufayli insoniyatning tinchi buzilgan.Shunday vaziyatda tasavvufni o‘rganish har qachongidan ham muhim vazifaga aylanib qolmoqda. Ammo tasavvuf murakkab va chigalliklarga ega bo‘lib, islomning ruhiy, aqliy, axloqiy, botiniy falsafasini o‘zida mujassam etgan. Uning asosida o‘z-o‘zini isloh qilish, tarbiyalash, rivojlantirish va o‘zgalarga yaxshilik qilish orqali ajr umid qilish yotadi.²⁶

Yevropa olimlari tasavvufni islom dinining alohida bir yacheykasi sifatida talqin qilib, “Sufism” (Germaniya va Fransiyada ham shunday) atamasining so‘nggi “ism”(izm) qismi uning alohida bir g‘oyaga ega tarixiy mifik ekanligining isbotidir.²⁷ Mutafakkirlar ”Tasavvuf islomning fundamental ajralmas qismi bo‘lib, Imon, Islom, Ehson nomli ustunlarining Ehson qismiga to‘g‘ri keladi. Imondan din (qalam), Islomdan shariat, Ehsondon esa tasavvuf vujudga keldi”,²⁸ degan fikrni tasdiqlaydilar.

Inson ongi va fel-atvori bevosita o‘zida ko‘plab faktlar va qadriyatlarni jam qiladi. Ulardan biri bo‘lmish fakt asosan ilm-fandan, qadriyatlarni esa diniy va diniy bo‘lмаган falsafalar, xususan, gumanizm va ekzistensializmdan quvvat oladi.²⁹

²⁵ Thoshihiko Izutsu, The Concept and Realitu of Existence, Tokyo, The Kio Institute, 1971.

²⁶ 3 Saliyo, “Mencari Makna Hidup dengan Jalan Sufi di Era Modern”, Esoterik: Jurnal Akhlak dan Tasawuf 2, no. 1 (2016). Accessed <http://dx.doi.org/10.21043/esoterik.v2i1>

²⁷ Annemarie Schimmel, Dimensi Mistik Dalam Islam (Jakarta: Pustaka Firdaus, 2002), 52.

²⁸ M. Amin Syukur, Tasawuf Kontekstual Solusi Problem Manusia Modern (Yogyakarta: Pustaka, 2003), 112.

²⁹ Fulford KW. Religion and psychiatry: Extending the limits of tolerance. In: Bhugra D, editor. *Psychiatry and Religion: Context, Consensus and Controversies*. London: Routledge; 1996. pp. 5–22. [Google Scholar] [Ref list]

Ruhiyat diniy falsafaning ajralmas qismi bo‘lib, qadriyatlarni belgilab bergani uchun insoniyatningruhiy kamolot bag‘ishlaydi. Shuni anglagan holda, 1884-yilda³⁰ Butunjahon Sog‘likni Saqlash Tashkilotining 37-Xalqaro Assambleyasida ruhiy salomatlikni ijtimoiy va madaniy jihatdan inson salomatligining asosiy qismlaridan biri ekanligi belgilangan. Inson ruhiyatini o‘rganish G‘arbiy Yevropaning tibbiyot maktablari ilmiy mashg‘ulotlari ro‘yxatiga kiritilgan.³¹ Ruhiy salomatlik nuqtai nazaridan, ruhiyat ushbu sohada boshqa o‘rinlarda “qalb”, “ko‘ngil” atamalari bilan ham qo‘llaniladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson salomatligiga yondashuvning ushbu ko‘rinishi biq qancha pozitiv, ba’zi hollarda negativ natijalarini fanga taqdim qilgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur yondashuv inson salomatligiga foyda keltirishi ko‘rsatkichi zarar keltirishi yoki hech qanday foyda keltirmasligidan ancha yuqoridir.³² Tasavvuf nafaqat musulmon olamida, balki nomusulmon olamida ham keng yoyilgan, Sharqdan G‘arba tomon yoyilib borayotgan o‘ziga xos ma’naviyat shakli bo‘lib, uni ma’naviy, ruhiy foydasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish kerak.³³

Darhaqiqat, “bugungi davr insoni, rivojlanish va yuksalishlarga qaramasdan, ma’naviy qashshoqlik va ruhiy inqirozdan aziyat chekmoqda. O‘zining asl tabiatidan tobora begonalashib borayotgan insoniyat Alber Kamyuning o‘z onasini ko‘mayotgan chog‘da bamaylixotir sigaret chekayotgan va qahva ichishni xohlayotgan (“Begona” asari) Mersosiga o‘xshab bormoqda. Tasavvufga o‘xshagan ma’naviy va falsafiy ta’limotlar aynan ana shunday inqirozlar uchun o‘ziga xos vaksinadir. Insoniyat ruhiy tushkunlikka tushgan, ma’naviy-axloqiy inqirozga yuz tutgan bir sharoitda Tasavvufning o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish, o‘z xatti harakatlari, xato va kamchiliklarini tahlil qilib borish, o‘zidagi yomon xislatlar bilan kurashib, ulardan qutilish, o‘zini ma’naviy-ruhiy jihatdan takomillashtirish va yuksaltirish, insonparvarlik va hayotsevarlik g‘oyalari bilan kuchli immunitet hosil qilib, kelajakka ishonib yashash va intilish kabi axloqiy-ruhiy tarbiya usullari bugungi kunda yanada muhim ahamiyat kasb etib bormoqda”.³⁴

Falsafiy jihatdan mushohada qiladigan bo‘lsak, tasavvuf ilmi islom dinining asl mohiyatini ochib beradigan kalitdir. Uning Islom mohiyatini chuqurroq anglash va

³⁰ Basu S. How the spiritual dimension of health was acknowledged by the world health assembly - A report. *New Approaches Med Health.* 1995;3:47–51. [Google Scholar] [Ref list]

³¹ Br J Psychiatry. 1994 Oct; 165(4):441-6.

³² Pathways to postoperative hostility in cardiac patients: mediation of coping, spiritual struggle and interleukin-6. *Ai AL, Pargament K, Kronfol Z, Tice TN, Appel H. Res Nurs Health.* 1987 Dec; 10(6):391-8. [PubMed]

³³ S. Haque Nizamie, Mohammad Zia Ul Haq Katshu, and N. A. Uvais“Sufism and mental health” *Indian J Psychiatry.* 2013 Jan; 55(Suppl 2): S215–S223.doi: 10.4103/0019-5545.105535

³⁴ Жаъфар Холмўминов. Тасаввуф онтологияси. – Тошкент: “Yosh avlod matbaa”, 2021. – Б.24-25.

idrok etishga qaratilgan inson tafakkuri va his-tuyg‘ularini harakatga keltiradigan usullari turli xalqlar va millatlarning tafakkur tarzi va estetik didiga mos tushganligi tufayli oxirgi ming yil davomida Islom dini jug‘rofiyasi yanada kengaydi. Boshqacha ta’bir bilan aytganda, aynan Tasavvuf ta’limotining Mavlaviya, Qodiriya va Naqshbandiya kabi ayrim tariqatlari tufayli Islom tafakkuri dunyo bo‘ylab tarqalib ketdi.

Tasavvuf ilmi shuningdek, islom dinining asosiy manbai bulgan Quroni Karim va Hadisni asl mohiyatini olib beruvchi talimot hisoblanadi. Vahiylik tajribalari bilan fenomenologik asosga ega bo‘lgan ushbu sufiy tajribalarini o‘rganish diniy bilim manbalarini ilmiy tadqiq qilish imkonini beradi.³⁵ Shu tufayli dunyo bo‘ylab kundan kunga klinik tajribalardan tadqiqotlargacha, normal va g‘ayritabiiy idrok hodisalarini va uning oqibatlarini o‘rganish ruhiy salomatlik bilan bog‘liq fanlarning ajralmas qismini tashkil qiladi va ruhiy salomatlik fanlari tadqiqotchilariga sufiylik ilmi va tajribalarini o‘rganish uchun qulay sharoit yaratib beradi.³⁶

XULOSA

Ayni paytda sog‘lom aql bilan tafakkur qilib, bir haqiqatni tan olish fursati yetib keldi: Tasavvuf XXI asrga kelib, global ma’naviy-ruhiy hodisa sifatida o‘zligini namoyon eta boshladi. Zero, “bugungi kunda Yer sharining Yaponiyadan Amerikagacha bo‘lgan hududlari oralig‘ida Tasavvuf ta’limotini favqulodda qiziqish bilan o‘rganish jarayoni boshlangan. Bugungi kunda bu islomiy tafakkur va hayot tarzi – Tasavvuf va uning falsafasi, badiiy adabiyoti, hayotbaxsh g‘oyalarini musulmonlar bilan birgalikda turli din va millat vakillari ham o‘rganishga bel bog‘lashgan. Nega? Chunki tobora ma’naviy qashshoqlik, axloqiy tubanlik va ruhiy inqirozlar girdobiga tushib borayotgan insoniyat Tasavvufning ruhiy tarbiya usullaridan foydalanishga muhtoj bo‘lib bormoqda”.³⁷

Xulosa qilib aytganda, Tasavvuf ta’limotini eskirgan matoh sifatida baholash katta xato ekanligini insoniyat tarixiy tajribasi ko‘rsatib bermoqda. Zotan, irrasional bilish usuliga asoslangan, ammo, shuningdek, rasionalistik bilishni ham butunlay inkor etmaydigan ushbu diniy-falsafiy ta’limot Yer sharining katta qismida o‘zining salkam 1300 yillik mavjudligi davomida takomillashib borish va modernizatsiyalashish imkoniyatlari kengligini isbotlab bergen. Bu holatni ayniqsa,

³⁵ Iqbal M. The Reconstruction of Religious Thought in Islam. London: Oxford University Press; 1934. [Google Scholar] [Ref list]

³⁶ Pathways to postoperative hostility in cardiac patients: mediation of coping, spiritual struggle and interleukin-6. Ai AL, Pargament K, Kronfol Z, Tice TN, Appel H. Res Nurs Health. 1987 Dec; 10(6):391-8. [PubMed]

³⁷ Жаъфар Холмўминов. Тасаввуф онтологияси. – Тошкент: “Yosh avlod matbaa”, 2021. – Б.15.

ham Sharq va ham G‘arb dunyosida keng tarqalgan Mavlaviya (Mavlono Jaloliddin Rumiy asos solgan) va Naqshbandiya (Xoja Bahouddin Naqshband asos solgan) kabi irfoniy tariqatlar misolida ham ko‘rish mumkin.

REFERENCES

1. Komil inson haqida to‘rt risola. / Fors tilidan Najmuddin Komilov tarjimasi. Toshkent: “Ma’naviyat”, 1997.
2. Ja’far Xolmo‘minov. Tasavvuf ontologiyasi. – Toshkent: “Yosh avlod matbaa”, 2021
3. Muhammad Nurulloh Saydo al Jazariy. Tasavvuf sirlari . –Toshkent, 1999.
4. Abdullaev A. Tasavvuf va uning namoyandalari. – Termiz, 2007.
5. Nicholson R.A. The Idea of Personality in Sufism. – New Delhi, 1976.
6. Goldsier I. Leksii ob islame. – Sankt-Peterburg: Brokgauz-Efron, 1912.
7. Bartold V.V. Uchyonie muslimanskogo «Renessansa». //Soch. T. VI. – Moskva, 1966
8. ۱۳ تهران، ۱۰۵ ص - . - ایران در تصوف های سرچشمی . سعید نفیسی،